



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 avgust holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1 avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4

32 422



Mas'uliyati
cheklangan jamiyat

4 425



Oilaviy korxonona

258



Unitar korxonona

6 641



Xususiy korxonona

51



Aksiyadorlik jamiyati


337



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **16,7** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,8 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



465

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 576

Ishlab chiqarish sanoati

64

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

191

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 9 296 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 15,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 15,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 7,2 % ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 7,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




13,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




16,6 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




3,6 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **28,1** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 833 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 10,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 52,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 17,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 17,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 39,8 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 14 122 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 24,0 % ga (jami savdodagi ulushi 69,1 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 28,4 % ga (jami savdodagi ulushi 24,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 23,0 % ga (jami savdodagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

764



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

26



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

25



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)



346

yashash bo'yicha xizmatlar



3 363


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 709 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 17,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,7 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 24,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,3 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

11




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

12



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 4 852 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 049 taga yoki 27,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 425 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1039 taga yoki 30,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 733 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 4,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 36 096 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 916 taga yoki 19,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 32 422 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 751 taga yoki 21,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3884 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 303 taga yoki 8,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 1 533 tani tashkil etib, ulardan 1 395 tasi yoki 91,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 126 taga yoki 9,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 104 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi
(2021- yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1 533	751	782
Oqqo'rg'on t.	18	7	11
Ohangaron t.	86	37	49
Bekobod t.	10	7	3
Bo'stonliq t.	70	37	33
Bo'ka t.	16	8	8
Quyichirchiq t.	47	25	22
Zangiota t.	198	93	105
Yuqorichirchiq t.	127	61	66
Qibray t.	162	81	81
Parkent t.	25	13	12
Piskent t.	20	10	10
O'rtachirchiq t.	99	43	56
Chinoz t.	24	11	13
Yangiyo'l t.	82	32	50
Toshkent t.	91	57	34
Nurafshon sh.	66	29	37
Olmaliq sh.	52	15	37
Angren sh.	114	75	39
Bekobod sh.	26	16	10
Ohangaron sh.	48	22	26
Chirchiq sh.	87	52	35
Yangiyo'l sh.	65	20	45

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71 202-86-83